

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING JADIDCHILIK FAOLIYATI

Dinora Eshboyeva,

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Islomshunoslik
yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi
dinoraeshboyeva23@gmail.com

Annotatsiya: maqolada XX asr jadidchilik harakatining buyuk namoyondasi, “Turkiston jadidlarining otasi” nomiga sazovor bo‘lgan shaxs, millat va vatan uchun umrini va jonini bag‘ishlagan, yoshlarning ilm-fanni egallashi uchun hamda johillik va mustamlakachilikka ma’rifat yo‘li bilan kurashgan Mahmudxo‘ja Behbudiyning jadidchilik faoliyati aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudi, jadidchilik, yangi maktablar, Samarqand, Oyna, asarlari, maqolalari.

JADIDISM ACTIVITY OF MAHMUDKHOJA BEHBUDI

Annotation: article discusses the jadidism activity of Mahmudhoja Behbudi, who the great representative of the 20th century Jadidism movement, the person named "Father of Turkestan Jadidism", dedicated his life and soul for the nation and the homeland, for the acquisition of science by young people, and through enlightenment against ignorance and colonialism.

Key words: Mahmudhoja Behbudi, modernism, new schools, Samarkand, Oyna, works, articles.

XIX asrda Turkiston diyorida vatanni ozodlik sari yetaklaydigan, ilm-fanga e’tibor berib, yoshlarni ma’rifatli bo‘lishiga undaydigan, millat va vatan uchun jonini ham beradigan inson Mahmudxo‘ja Behbudi dunyoga keldi. Mahmudxo‘ja Behbudi 1875-yil 19-yanvar kuni Samarqand viloyatida tavallud topgan. Otasidan yetim qolgan Mahmudxo‘ja qozi va muftiy darajalarida faoliyat yuritadi. XIX asrda Rossiya imperiyasining Qrim, Kavkazorti, Turkiston kabi hududlarida xalqni ma’rifatli qilish yo‘li bilan mustamlakachilikdan ozod bo‘lish harakatlari kuchaydi. Qrim-tatar ma’rifatparvari Ismoilbek G‘aspirali (1851-1914) jadidchilik harakatining asoschisi hisoblanadi. U bir nechta tillarni mukammal egallagan,



shuningdek, dunyoviy va diniy ilmlarni ham o'rgangan, Sharq va G'arb taraqqiyotini solishtirib turkey xalqlarning rivojlanish yo'llarini izlaydi. 1893-yili Ismoilbek G'aspirali Buxoro, Toshkent va Samarqand shahrlarida bo'ladi va u yerdagi ziyolilar bilan uchrashib Turkistonni ma'rifatli qilish to'g'risida o'z g'oyalarini ulashadi. Shuningdek, yangi usul maktablarini qurish va ularda yoshlarga diniy va dunyoviy bilimlar berish to'g'risida ham ma'lumotlar beradi. Albatta, bu g'oyalar Mahmudxo'ja Behbudiyning ham befarq qoldirmaydi.

1899-1900 yillar davomida Mahmudxo'ja haj safarini amalga oshiradi. Bu safar asnosida Misr, Arabiston va Turkiya kabi davlatlarda bo'lib, yangi usul maktablarini qurish g'oyasi mustahkamlanib boradi. Shuning uchun ham haj safaridan qaytgach Samarqand yaqinidagi Halvoyi qishlog'ida Ajziy, Rajabaminda Abdulqodir Shakuriylar bilan hamkorlikda yangi maktab ochadi. Ammo Shakuriy maktabini 1908-yilda Behbudiy Samarqanddagi o'z hovlisiga ko'chirib keltiradi. Behbudiy Qozon va Ufaga borib (1903-04), u yerdagi yangi usul maktablari bilan tanishadi, tatar ziyolilari bilan aloqani yo'lga qo'yadi. Yangi maktablar uchun darsliklar tuzishga kirishadi¹. Ushbu darsliklar orasida "Tarixi islom" (1909), "Risolai asbobi savod" ("Savod chiqarish kitobi", 1904), "Kitobat ulatfol" ("Bolalar xati", 1908), "Risolai jug'rofiyai umroniy" ("Aholi geografiyasiga kirish", 1905), "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy geografiya", 1906), "Amaliyoti islom" (1908) kabi asarlarni ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, hozirgacha unga tegishli 300 dan ortiq maqolalar ham topildi. Albatta, bu asarlar va maqolalarning barchasi xalqni ma'rifatli qilish uchun edi. O'sha paytdagi maktablarda o'qiyotgan o'quvchilardan pul ham olinmagan. Maktab hijozlari, darsliklarni chiqarish kabi harajatlar esa Behbudiyning o'zi tomonidan amalga oshirilgan.

Xalqni ma'rifatli qilish, milliy davlat barpo etish, turkey tillarga davlat tili maqomini berish, konstitutsion, parlament idora usulidagi ozod davlat barpo etish kabilar jadidchilarning g'oyalar edi. Bular bu maqsadlar yo'lida jonini ham, molini ham ayamadi. Ular tomonidan ko'plab asarlar nashr ettirilib, gazeta va jurnallarga asos solindi. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy ham "Samarqand" gazetasini va "Oyna" jurnalini nashr ettirdi. Ammo gazeta 45-sonidan so'ng moddiy tanqislik tufayli yopildi. Jurnal esa Kavkazorti, Tatariston, Turkiya, Eron hududlarigacha yetib bordi.

¹ Begali Qosimov. Mahmudxo'ja behbudiy hayoti va faoliyati. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2015 yil 3-son.



Shu bilan bir qatorda Behbudiy moharrir I. Gasprinskiyning “Tarjimon” gazetasining doimiy muallifi bo‘lgan.

1911-yilda Behbudiy o‘zbek adabiyotshunosligi tarixida ulkan yangilikka qo‘l uradi, shu yili “Padarkush” dramasi yozadi. Bu birinchi o‘zbek dramasi edi. Dramani nashr ettirish uchun ulkan harakatlar amalga oshirildi, o‘ziga xos vatanparvarlik ruhi bilan boyitilgan bu dramani sovet hukumati nashr etolmas edi. Shuning uchun ham drama “Borodino jangi va Rusiyaning fransuzlar bosqinidan xalos bo‘lishining 100 yillik yubileyi sanasiga bag‘ishlanadi” degan vaj bilan Tbilisi senzurasidan o‘tkaziladi. Drama 1913-yilda nashr ettirilgan bo‘lsa ham, 1914-yilga kelibgina sahna yuzini ko‘rdi.

1914-yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy Arab mamlakatlariga ikkinchi bor safar uyushtiradi va bu safar davomida Ismoilbek G‘aspirali bilan uchrashadi. Bu davrda “Oyna” juranalida Behbudiyning safar taassurotlari, u bo‘lgan shahrlarning tarixi, adabiyotlari, madaniyati haqida maqolalar nashr ettiradi. Bu maqolalar orqali xalqimizga ushbu shaharlar haqida ma‘lumotlar yetkazishga harakat qiladi.

Demokratik davlat barpo etish g‘oyasi 1906-yilda boshlangan edi. 1917-1918 yillarda bu g‘oya qizg‘in tus oladi. 1917-yilda Turkiston musulmonlari qurultoyida nutq so‘zladi. 1917 yil 26 noyabrda Qo‘qonda o‘lka musulmonlarining 4-favqulodda qurultoyida “Turkiston muxtoriyati” tuzilganligi e‘lon qilindi. Albatta, bu muxtoriyatning g‘oyaviy asoschisi Mahmudxo‘ja Behbudiy edi. Ammo muxtoriyat ruslar tomonidan shavqatsizlik bilan bostiriladi. Behbudiy Samarqandga ketishga majbur bo‘ladi, u yerda ko‘p turolmasdan Toshkentga keladi. Turkistonning rus hukumati bilan muzokara qilib ko‘rmoqchi bo‘ladi, lekin muzokara ish o‘xshamaydi. 1919-yil mamlakatni tashlab chiqib ketayotganda Shahrizabzda Inqilobiy favqulodda komissiya ayg‘oqchilari ko‘magida Buxoro amirligi odamlari tomonidan qo‘lga olinadi, hamrohlari Muhammadqul va Mardonqul² bilan birgalikda Qarshida zindonga tashlanadi va qatl qilinadi. Bu kun Turkiston xalqi uchun haqiqiy fojea edi. Ilm-fanni yuksaltirish, xalqni ma‘rifatli qilish, demokratik va ozod mamlakat barpo etish, ribojlangan davlatlar qatoriga qo‘shilish uchun Mahmudxo‘ja Behbudiy bor kuch va imkoniyati bilan harakat qildi. Ammo jadidchilarning, xususan, Behbudiyning harakat va intilishlari zoe ketmadi. Bugun

² Begali Qosimov. Mahmudxo‘ja behbudiy hayoti va faoliyati. “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasi, 2015 yil 3-son.



biz mustaqil, farovon va tinch zamindar yashashimizda jadidchilarning ham hissasi katta. Mustaqillik yillarida ularning xotiralarini abadiylashtirish uchun yubiley sanalari nishonlandi, asaralri nashr ettirildi, ko‘chalarga ularning nomlari berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Begali Qosimov. Mahmudxo‘ja behbudiy hayoti va faoliyati. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2015 yil 3-son.
2. M.Xayrullayev. Ma’naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomlar, adiblar). – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr, 2001.
3. Hoji Muin. Buyuk ustozimiz Behbudiy afandi. Mehnatkashlar tovushi gazetasi, 1920.
4. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, O‘.Ubaydullayev. Vatan tarixi 2 – T.: “Sharq”, 2010.

